

**TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRANI UYG`OTISHDA XORAZM
JADIDCHILIK HARAKATI VUJUDGA KELISHI SHAROITIDA IJTIMOIIY-
SIYOSIY VAZIYATNING TA`SIRI**

Madina Komiljon qizi Usmonaliyeva,

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

madinaqidirboyeva@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida jadidchilik harakati vujudga kelish arafasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xonlik aholisi, yer egaligi, soliqlar haqida qisqacha ma`lumot beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Xiva, jadidchilik, Muhammad Rahimxon II, aholi, soliq, Yosh xivaliklar, Polvoniyoz Hoji Yusupov.*

***Аннотация.** В данной статье представлена краткая информация о социально-политической ситуации накануне возникновения джадидского движения в Хивском ханстве в конце XIX и начале XX веков, населении ханства, землевладении и налогах.*

***Ключевые слова:** Хива, джадидизм, Мухаммад Рахимхан II, население, налоги, молодохивский народ, Полвонийоз Хаджи Юсупов.*

***Annotation.** This article provides brief information about the socio-political situation on the eve of the emergence of the Jadid movement in the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries, the population of the khanate, land ownership, and taxes.*

***Keywords:** Khiva, Jadidism, Muhammad Rakhimkhan II, population, taxes, Young Khiva people, Polvoniyoz Haji Yusupov.*

Kirish. Xorazmda vujudga kelgan jadidchilik harakati va faoliyatini o‘rganishdan avval, bu harakatni vujudga kelish sabablarini o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xo‘sh, xonlikda islohotchilik harakatini vujudga kelishiga nima sabab bo‘ldi?

Rossiya imperiyasining Xiva xonligi hududiga hujumi arafasida Xiva xonligining umumiy maydoni 130590 kv. km [1] bo‘lgan. Uning 35,2% ida dehqonchilik qilingan, qolgan 64,8 % esa qumliklardan iborat bo‘lgan. Aholi haqida manbalarda turlicha ma`lumotlar keltiriladi. Xususan, sharqshunos olim A.L. Kun 780 ming kishi [2], M.Y. Yo‘ldoshev esa arxiv ma`lumotlariga asoslanib, xonlik aholisini 800 mingdan ortiq[3], Pogarelskiy 519,437 kishi[4], M.Holdsword* esa xonlik aholisini 700 ming atrofida deb ko‘rsatadi[5]. 1910-yil dekabrda xon mahkamasi tomonidan tayyorlangan ma`lumotda xonlik aholisi 106 ming uylik, 742 ming nafarni tashkil etgan. Ushbu manbalar va arxiv hujjatlariga asoslangan holda[6] xonlik aholisini 700 -800 ming kishiga yaqin deb hisoblash mumkin. Aholining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil etgan. Keyingi o‘rinda turkman, qozoq va qoraqalpoqlar turgan.

Xonlikda soliqlarning ko‘pligi [7] (T.G.To‘xtametov ma`lumotlariga ko‘ra ularning soni 70 ta bo‘lgan [8]), umumiy mehnat majburiyatining og‘irligi, irigatsiya muammolari aholining ko‘plab noroziligiga sabab bo‘lardi. Xususan, “Новый Восток”

jurnali “Oʻrta Osiyo respublikalarining birortasida Xorazmdagidek suv inshootlarini tiklash uchun mehnat sarflanmaydi[9]”, - deb yozgan maʼlumotlaridan ham xonlikda irrigatsiya masalasi qanchalik ogʻir ekanligini koʻrsatadi.

Xiva xonligida V. Grishfeld va M. Galkin maʼlumotlariga koʻra boj puli, miltiq soligʻi, solgʻut, zakot, tagijoy yoki bozor yigʻimi, tarozi haqi, choʻp haqi yoki davlat yaylovlarida chorva boqqanligi uchun soliq, suv puli, chopar puli[10] kabi soliq turlari boʻlgan. Soliqlardan tashqari aholi begor, qazuv, qochuv kabi majburiyatlarni ham bajarishgan. Majburiyat muddati rasman 12 kun boʻlsada ayrim hollarda 15-30 kungacha, baʼzan 50 kungacha choʻzilgan [11].

Xonlikda soliq yigʻish jarayonida ham koʻplab adolatsizliklarga yoʻl qoʻyilgan. Xususan, yarim tanob yeri boʻlgan kambagʻal dehqonlardan 2 tilla soliq olingani holda uning yuzlab va minglab tanob yerga egalik qilgan boy qoʻshnisi 6 tillagina soliq toʻlagan.[12] Bundan tashqari, xonlikda koʻplab dehqonlar katta yer egalari va amaldorlarning zulmi sababli oʻz yerlaridan ajrab, qashshoqlashib qolishiga sabab boʻlgan. Buning natijasida dehqonlar xon mahkamasidan najot istab 1911-1917 yillarda koʻplab arznomalar yozishgan.

Vohada aloqa yoʻllarining yaxshi yoʻlgan qoʻyilmaganligi esa savdo yoʻllarining rivojlanishiga, iqtisodiy, madaniy hayotning yuksalishiga katta toʻsiq boʻlib kelmoqda edi.

Muhokama va natijalar. Rossiya imperiyasi tomonidan 1873-yilda Xiva xonligining bosib olinishi natijasida xon mustaqil siyosat yuritish huquqidan mahrum boʻldi. Shu sababli aholi orasida yuzaga kelgan turli xil noroziliklarni bostirishda rus qoʻshinlaridan yordam soʻrashga majbur boʻlardi. Bu esa rus hukumatiga xonlikning ichki ishlariga aralashish huquqini berardi.

1898-yil Peterburgda boʻlgan inqilob natijasida Xivaga surgun qilingan Kislyakov, Andreyev, Safonov kabi talabalar bilan birga Rossiyadagi oʻzgarishlar ham xonlik hududiga kirib kelgan. Masalan, Yosh xivaliklar partiyasi asoschisi Polvoniyoz Xoji Yusupov Safonov bilan yaqindan tanishganligi uning qarashlariga ham taʼsir oʻtkazgan [13]. Buni u oʻz “Xotira”larida ham yozib qoldirgan. Shuningdek, 1905-1907 yillarda bir qancha xorijiy davlatlarda (Turkiya, Eron, Rossiya va h.k.) inqiloblar yuzaga keldi. Bularning barchasi xonlik hududida jadidchilik harakatining harakatining yuzaga kelishiga sabab boʻldi.

Xiva xonlari va xon xonadoni vakillari ham maorif, madaniyatning rivojiga bevosita hissa qoʻshishgan. Buni ularning oʻzlari ham maʼrifatparvarlik bilan shugʻullanganligigan koʻrish mumkin. Masalan, Muhammad Rahimxon II – Feruz taxallasusi bilan, Muhammad Rahimxonning inisi Otajon toʻra – Kamron taxallusi bilan, Asfandiyorxon – Farrux taxallusida sheʼr yozib turgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Xorazmda jadidchilik harakatining vujudga kelishida Said Muhammad Rahimxon (Feruz)ning roli va amalga oshirgan ishlari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki Said Muhammad Rahimxon ilm-ma`rifat homiysi, tashkilotchisi, san`at va adabiyotning chinakkam fidoiysi sifatida katta ishlarni amalga oshirgan.

Muhammad Rahimxon II (Feruz) ham huddi otasi Sayid Muhammadxon kabi har haftaning ikki kuni saroyda shoirlar mushoirasi, kitobxonlik kechalari o`tkazib borishni o`ziga odat qilib olgan edi.[14] She`rga, she`riyatga havasi yuksak bo`lgani uchun o`zi ham “Feruz” taxallusida she`rlar yozgan. O`lkada ko`plab memoriy inshootlarning qurilishiga homiylik qilgan.

Lekin uning vafotidan keyin (1910-yil 16-avgust) xonlik taxtiga o`tirgan o`g`li Asfandiyorxon davrida jadidchilik harakatining faol a`zolari qatag`onga uchrab, ayrimlari qatl etiladi, Qolganlari esa Toshkent, To`rtko`l kabi shaharlarga qochib, yashirin faoliyat olib borishga majbur bo`lishadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorazmda jadidchilik harakatining vujudga kelishiga bir qancha omillar sabab bo`ldi. Bular.

Aholining ko`pchiligini tashkil etgan kambag`al aholining ezilishi, soliqlar, jabr-zulumni o`z ko`zi bilan ko`rib turgan ilg`or kishilar asta sekinlik bilan o`lkada islohotlar o`tkazish kerakligini tushunib yetdilar. Buni bosh vazir Islomxo`ja faoliyatida ko`rish mumkin;

Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning ma`rifatparvar hukmdor sifatida amalga oshirgan islohotlari ham o`lkada jadidchilik harakatining vujudga kelishida muhim omil bo`ldi;


XIX asr so`nggi choragida Qirimda vujudga kelgan jadidchilik harakati va ushbu harakat asoschisi Ismoilbek Gaspiralinining jadidchilik faoliyati, amalga oshirgan ishlari, shuningdek, 1905-1907 yillarda Turkiya, Eron, Rossiya kabi davlatlarda yuzaga kelgan inqilobiy vaziyat, “Yosh tukrlar”, “Yosh afg`onlar” kabi harakatlarning vujudga kelishi ham Xorazmda jadidchilik harakatining va uning negizida “Yosh Xivaliklar” harakatining vujudga kelishiga sabab bo`ldi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro`yxati:

1. Гиршфелд В. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. Ч. Ташкент, 1903, 142 с.
2. Туркистанский сборник. Т. 83. - С.5.
3. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.. Ўздавнашр, 1959. -196 б.
4. Погарелский И.В. Очерки Экономической и политической истории Хивинского ханства конца XIX и начало XX вв (1873-1917 гг). -Л.. ЛГУ, 1968
5. Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959. – P. 21.
6. O`zbekiston Milliy arxivi, I-125-fond, 1-ro`yxat, 527-ish, 69-varaq.

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

7. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. Тошкент. ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. - Б.141.
8. Тухтаматов Т. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – М.. Наука, 1969. - С.58-59;
9. Зубрек К. Земледелие и ирригация Хорезма в связи с вопросом экономического объединения среднеазиатских республик // Новый Восток, 1923. - №3. – С. 214.
10. Гиршфелд В. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. Ч. 2. Ташкент, 1903, 33 с.
11. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.. ЎзССР ФА нашрети, 1959. - 247 б.
12. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-125-fond, 1-ro‘xat, 318-ish, 228-244 varaqlar.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-125-fond, 1-ro‘xat, 609-ish, 2-varaq.
14. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. - Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 61.



**UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE**